

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH MASALALARI

*Nasiba Isoqulova Abdumurotovna.*

*Samarqand viloyati Ishtixon tumani*

*67-umumta'lim maktab*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama intellektual rivojlantirishning muhim masalalari, "intellekt" va "tafakkur" tushunchalarining uyg'un va mushtarakligi haqida ma'lumotlar yoritilgan. Boshlang'ich sinf dasturlaridagi "O'qish", "Odobnoma", "Ona tili", "Matematika" fanlarining o'quvchilarida shaxs kamoloti elementlarini tarbiyalashdagi ahamiyati bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** intellektual, falsafa, tafakkur, ijtimoiy-psixologik, iqtidor.

**Abstract:** This article covers the important issues of comprehensive intellectual development of elementary school students, information about the harmony and commonality of the concepts of "intellect" and "thinking". The importance of the elements of personal development in the education of the students of the subjects "Reading", "Etiquette", "Mother language", "Mathematics" in the elementary school programs is explained.

**Key words:** intellectual, philosophy, thinking, socio-psychological, talent.

**Абстрактный:** В данной статье освещены важные вопросы всестороннего интеллектуального развития учащихся начальной школы, сведения о гармонии и общности понятий «интеллект» и «мышление». Объяснено значение элементов личностного развития в обучении учащихся предметам «Чтение», «Этикет», «Родной язык», «Математика» в программах начальной школы.

**Ключевые слова:** интеллектуал, философия, мышление, социально-психологический, талант.

Intellektual qobiliyat ijodiy faoliyat natijasida yaratiladi. Hozirgi zamon sharoitida "intellekt" ning yetmishdan ortiq turli ta'riflari ma'lum bo'lib, ularning tahlili bunday xulosa qilishga imkon beradi: u ancha keng tushuncha bo'lib, bugungi kunda uning bir ma'noli talqini yo'q. "Intellekt" va "tafakkur" tushunchalarini yaqinlashtiradigan bir qator ta'riflar mavjud.

Falsafadan ensiklopedik lug'at intellektni hissiyot, iroda, tasavvur kabi qobiliyatlardan farqli o'laroq, tafakkur qobiliyati sifatida talqin qiladi. "Intellekt", "tafakkur", "sinergetik tafakkur stili", "o'quv", "intellektual o'quv", "o'quv-intellektual o'quv" tushunchalarining mazmunini aniqlashtirish,

shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv intellektual o'quvlari kriteriyalari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishga bag'ishlanadi. Intellektual - aql zakovat egasiga xos bo'lgan aqliy ma'naviy qobiliyat, salohiyat. Rivojlantirish-o'quvchi yoki talabaning ta'lim vositasida bir sifat bosqichidan ikkinchisiga o'tishini ta'minlovchi jarayon. Ammo shu narsa ham ma'lumki, tafakkur - bu faoliyat bo'lib, u intellekt deb olinadi. Shuning uchun intellektni, eng avvalo, tafakkurlashda yuqori tashkil etilgan qobiliyat sifatida muhokama qilinishi zarur. O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi shaxs tarbiyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning zarur shartlaridan biridir. Inson o'z xatti-harakatlari, faoliyati davomida qay darajada mustaqil fikrli bo'lsa, shu qadar tushunchasi keng, aql-idroki yuksak hisoblanadi. Fikr nutq orqali ifoda etilishi nazarda tutilsa, ona tili ta'limi oldida nechog'li mas'uliyatli vazifani hal qilish masalasi turganini anglash qiyin emas. Kichik maktab yoshida bu tushuncha va hamma mantiqiy jarayonlarni birdaniga egallanishi mumkin emas, lekin o'quvchilar ularga 2-sinfdayoq duch keladilar. Biroq o'qitishni shunday tashkil etish kerakki, bunda o'quvchilar jarayonlarni asta-sekin egallasinlar va bunda ularning tafakkuri hisobga olinsin.

Boshlang'ich sinf o'quvchining tafakkuri o'ziga xosdir: bu esa unda turli tafakkur shakllariga oid qobiliyatlar hali rivojlanmaganligi bilan ifodalanadi. Tabiiyki, bu o'qitishda ma'lum qiyinchiliklar yaratadi. Kichik yoshli bolalar tilga olingan mantiqiy tafakkur jarayonini egallaydilar. Bu ona tili, matematika kabi matkab o'quv fanlarini o'rganishda ravshan ko'rinib turadi. Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning shaxs kamolotini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biridir. Quyidagi omillar boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtidorlik kamolotini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim faoliyatini tahlil etish ularda o'qitilayotgan bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan, "O'qish", "Odobnoma", "Ona tili", "Matematika" kabi fanlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxs kamoloti elementlarini tarbiyalashda katta imkoniyatlarga egaligini ko'rsatadi.

Aqliy rivojlanish nazariyasi mualliflari intellektual o'quvlar shakllanishining quyidagi bosqichlarini ajratishadi:

- 1) o'quvlarni qo'llash tajribasini aniqlash bilan tavsiflanuvchi bosqich;
- 2) tashxislash bosqichi, bunda o'quvlarning shakllanganlik darajalari aniqlandi;
- 3) motivatsiya bosqichi;
- 4) uslubdan foydalanish algoritmini anglash bosqichi;
- 5) bevosita qo'llash hamda boshqa predmetlar bilan taqqoslash bosqichi.

Maktab o'quvchilarini tafakkur sa'y-harakatlariga o'rgatishda ikkita faoliyatli o'qitish nazariyasi keng qo'llanishga ega bo'ldi: birinchi maktab vakillari intellektual operatsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish nazariyasini ishlab chiqishdi. Bu nazariyaning bosh g'oyasi quyidagicha: bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilar tomonidan faqat ma'lum sa'y-harakatlar tizimi bajarilishi natijasida sodir bo'ladi. Harakat o'zi ustida bajarilayotgan predmet bilan funksional bog'langan, o'z ichiga mazkur predmetni o'zgartirish maqsadini va bunday o'zgartirish vositasini oladi. Bularning hammasi birgalikda shakllantirilayotgan harakatning ijro qismini tashkil etadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish uchun ta'limga yangicha yondashuv, innovatsion ta'lim texnologiyalari ko'proq ta'lim oluvchilar faolligiga asoslanishi, ularda mustaqil o'rganish ehtiyoji va ko'nikmalarini shakllantirishga yo'nalgan bo'lishi lozim. O'qituvchi bilim uzatuvchi roldan ta'lim oluvchilarning faol o'rganish jarayonini tashkil qiluvchi, ularning o'qish motivatsiyalarini va faoliyatini boshqaruvchi, ulardagi mavjud bilish, erkin fikrlash, ijod qilish, yangilik yaratish ehtiyojlarini psixologik va pedagogik jihatdan oqilona qo'llab- quvvatlab, rivojlantiruvchi roliga o'tishi zarur.

Innovatsion jarayonning har bir bosqichida bu jarayon qatnashchilari quyidagi uchta yo'nalishda ish olib borishlari zarur: moddiy-texnik; tashkiliy; ijtimoiy-psixologik. Har qanday yangilik kiritilishi, shu jumladan, pedagogik texnologiya joriy qilinishi va zaruriy samara berishi pedagogik jamoa a'zolarining yangilikni qanday qabul qilishi, unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yunusova D.I. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, T.: 2007-258 b.
2. Yagudayev B. Ya. Ajoyib sonlar olamida.- Toshkent: "O'qituvchi", 1979.
3. Umumta'lim maktablarining 1-4-sinflari uchun mo'ljallangan darslik. So'nggi nashri.